



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## TILLARARO BOG'LIQLIK: TALABALARDA MADANIY VA LINGVISTIK ESTETIKANI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

**Isoqova Sitora Shamsiddin qizi**  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
I-kurs tayanch doktoranti  
+998915633027  
[isoqovasitora97@gmail.com](mailto:isoqovasitora97@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176451>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tillararo bog'liqlik asosida talabalar tilning lingvistik jihatlarini o'rganish bilan bir qatorda madaniy estetikani egallashga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tilning madaniy va lingvistik jihatlari chuqur o'rganilib, ularni o'quv jarayonida talabalarga tatbiq qilinib, til o'rganish jarayonida ularning estetik didini va til madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tillararo bog'liqlik, lingvistik estetika, innovatsion metodika, madaniyatlararo tushunish, estetik did, onlayn tarjima vositalari, interaktiv ta'lim, madaniy konteks

**Аннотация:** В данной статье анализируются инновационные подходы, направленные на освоение студентами культурной эстетики наряду с изучением лингвистических аспектов языка на основе межъязыковых связей. Глубоко изучаются культурные и лингвистические аспекты языка, которые внедряются в учебный процесс, освещая их значение в развитии эстетического вкуса и языковой культуры студентов в процессе изучения языка.

**Ключевые слова:** Межъязыковые связи, лингвистическая эстетика, инновационная методика, межкультурное понимание, эстетический вкус, онлайн переводческие инструменты, интерактивное обучение, культурный контекст.

**Annotation:** This article analyzes innovative approaches aimed at enabling students to acquire cultural aesthetics alongside studying the linguistic aspects of language based on interlingual connections. The cultural and linguistic aspects of language are thoroughly studied and applied to the educational process, highlighting their significance in developing students' aesthetic taste and linguistic culture during language learning.

**Keywords:** Interlingual connections, linguistic aesthetics, innovative methodology, intercultural understanding, aesthetic taste, online translation tools, interactive learning, cultural context.

Bugungi zamonaviy dunyoda tillararo bog'liqlikni chuqur anglash va uni jamiyatga madaniy hamda estetik jihatdan talqin etish muloqotning asosiy omilidir. Bugungi kunda yosh avlodning lingvistik va madaniy estetikasini shakllantirishda nafaqat ta'lim olish, balki ularning shaxsiy va professional rivojlanishi uchun innovatsion yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, talabalarning o'z



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

ona tilisini bilishi bilan bir qatorda boshqa bir nechta xorijiy tillarni samarali o'rganish hamda ularni amaliyotda keng qo'llay olishi ham lingvistik ko'nikmalarni ham madaniy tushunishini shakllantiradi. Ushbu olib borilayotgan jarayonda innovatsion yondashuvlar sifatida axborot texnologiyalari, madaniy kommunikatsion platformalar va integratsion o'quv metodikalaridan foydalanish asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatda tilning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi o'sha jamiyatda yashayotgan insonlar uchun ko'plab imkoniyatlarni keltiribgina qolmay, balki bilim, tajriba va madaniy qadriyatlarni avloddan- avlodga yetkazuvchi kuchli vosita ham hisoblanadi. Bundan tashqari, tilni boshqa tillar bilan birgalikda o'rganilish jarayoni lingvistik va madaniy bog'liqlikni shakllantiradi, insonlarning dunyoqarashini o'zgartiradi hamda turli xil madaniyatlarni anglash va tillararo bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.<sup>1</sup>

Tillararo bog'liqlik jarayonida talabalar bir nechta tillarni o'zining mahalliy tili bilan qiyoslash orqali o'rganadi hamda bu amaliyot ularga tillararo lingvistik qobiliyatlarini kengaytirish, tillar o'rtasidagi grammatik, leksik va semantik o'xshashliklarni va farqli tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, o'quv mashg'ulotlari davomida talabalar lingvistik estetikani shakllantirish uchun ingliz tilidagi she'riy ohang va qofiyalarni o'zbek tili bilan taqqoslash orqali har ikki tilning o'ziga xos bo'lgan badiiy xususiyatlarini his qilishlari mumkin. Masalan, Robert Bryonsning "My heart's in the Highlands" she'rini uch til ingliz, rus hamda o'zbek tilidagi talqini ko'rishimiz mumkin:

Farewell to the Highlands, farewell to the north  
The birth place of Valour, the country of Worth;  
Wherever I wander, wherever I rove,  
The hills of the Highlands forever I love.

S. Marshak tarjimasida quyidagicha jaranglaydi:

Прощай, моя родина! Север, прощай, – Отечество славы и доблести край.

По белому свету судьбою гоним, Навеки останусь я сыном твоим!

Muhammad Ali tarjimasida:

Alvido, ey vatanim! Dovruqli Shimol,  
Shon-sharaflar o'lkasi, endi yaxshi qol!  
Quvg'indiman dunyoda, ammo bilurman:

<sup>1</sup> M.T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent "Yangi asr avlodi", 2009.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Men bir umr farzanding bo'lib qolurman!<sup>2</sup>

Ushbu she'rni uch xil tilda taqlin etilishi lingvistik va badiiy estetikasi shakllantirish uchun samarali yondashuvdir. Har bir tilning ohangdorligi, badiiy ifoda vositalari va ritmiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tilida yozilgan she'r talabalarda ingliz tilidagi estetik xususiyatlarni o'zbek tilidagi go'zallik bilan qiyoslash imkoniga ega bo'ladilar, hamda rus tilidagi tarjimada esa ohangning kuchli ritmik urg'usi va badiiy ifodaning hissiy boyligini yaqqol sezishi mumkin. O'quv mashg'ulotlarida ushbu she'rlarni tillararo talqin qilish jarayoni innovatsion metodikalar orqali talabalarda lingvistik va madaniy estetikani shakllantirishda samarali vosita sifatida ishlatish mumkin. Bu yondashuv nafaqat badiiy tahlilni, balki til o'rganishning yangi, texnologik va interaktiv usullarini joriy etishni ham nazarda tutadi. Masalan:

1. Multimedia platformalaridan foydalanish

*Videodaralar* : Har tildagi she'rni professional diktorlar tomonidan o'qilishini yozib olish yoki tayyor videolarni talabalarga taqdim etishilishi tilning ohang va talaffuzining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishiga yordam beradi.

*Interaktiv prezentatsiyalar*: She'rning har bir qatorini bir nechta tilda ko'rsatib, estetik va lingvistik farqlarini vizual tarzda tushuntirish.

2. Onlayn tarjima va tahlil mashg'ulotlari

*Tarjima bo'yicha bahslar*. Talabalar o'z tarjimalarini taqdim etib, ularni estetik va lingvistik jihatdan muhokama qiladi.

*Al tarjima vositalari bilan ishlash*. Google Translate yoki DeepL kabi vositalar orqali avtomatik tarjima qilingan matnlarni tahlil qilish va inson tarjimasi bilan farqlarni muhokama qilish.

3. Madaniy konteksni o'rganish uchun virtual ekskursiyalar.

She'rning vatanparvarlik va madaniy qadriyatlariga urg'u berilganligi sababli, virtual ekskursiyalar orqali turli xalqlarning madaniy va tarixiy kontekstlarini tushunish imkoniyatini yaratish mumkin.

*3D tur-dasturlari*: O'zbekistonning, Angliyaning va Rossiyaning tarixiy obidalari, madaniy o'choqlariga virtual sayohatlar orqali she'rning madaniy bog'liqligini talqin qilish.

*Virtual madaniy munozaralar*: Turli xalqlarning madaniyatiga oid mavzularni muhokama qilish uchun xalqaro talaba guruhlarini bilan muloqot qilish.

<sup>2</sup> R. Byorns. Qo'shiq va balladalar. Ruschadan Muhammad Ali tarjimasi. – Toshkent: Adabsan'atnashr, 1971. 128 bet.



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

#### 4. Gamifikatsiya (o'yinlashtirish)

*She'r bo'yicha viktorinalar:* She'rning biror qatori yoki tarjimasini to'g'ri joylashtirish, ohangni topish kabi o'yinlar orqali o'rganishni qiziqarli qilish.

*Interaktiv topshiriqlar:* Masalan, talabalardan har bir tilga mos yangi qatorlar yozish yoki mavjud qatorlarni o'z ohangiga ko'ra qayta talqin qilishni so'rash.

#### 5. Innovatsion o'quv moduli yaratish

Modul talabalarga she'rni lingvistik, badiiy va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilishni o'rgatadi. Har bir dars texnologik yondashuvlar (multimedia, AI tahlillari, interaktiv vazifalar) orqali talabalarning qiziqishini oshiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ta'limga innovatsion usulda yondashish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi va mavzuning qiziqarliligini hamda tushunishga oson bo'lishini ta'minlab beradi. Ushbu she'rning tillararo talqini zamonaviy innovatsion metodikalar bilan uyg'unlashtirilgan holda, talabalarning lingvistik bilimlarini chuqurlashtiradi, badiiy didlarini rivojlantiradi va madaniy onglarini kengaytiradi. Bu yondashuv nafaqat tillararo bog'liqlikni o'rganish jarayonini samarali qiladi, balki o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil qilishga imkon beradi. Tillararo bog'liqlik asosida madaniy va lingvistik estetikani shakllantirishning innovatsion metodikasi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarga nafaqat til bilimlarini, balki madaniy va badiiy anglashni ham rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, talabalarning ijodiy tafakkurini kengaytiradi va ularni dunyoqarashlarini boyitadi. Yoshlarimiz uchun innovatsiya yorqin kelajak beradi hamda ularni iqtidorli, talantli va teran fikrlaydigan darajada yuksaltiradi. Innovatsiya — bu yangi g'oya, usul, mahsulot yoki jarayonni yaratish va tatbiq etish orqali jamiyatni, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishdir. Innovatsiya, talabalarni an'anaviy yondashuvlardan chiqib, yangi va noodatiy fikrlashga undaydi. Talabalar yangi g'oyalar yaratish, kreativ yechimlar topish va muammolarni o'z usullarida hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularning ijodiy salohiyatini ochadi.<sup>3</sup>

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu maqolada, tillararo bog'liqlik orqali talabalarda madaniy va lingvistik estetikani shakllantirishning innovatsion yondashuvlari muhokama qilindi. Tillararo bog'liqlik, talabalarga turli tillarni o'rganish jarayonida faqat tilni o'rganish emas, balki madaniy qadriyatlarni anglash,

<sup>3</sup> Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

estetik didni rivojlantirish va lingvistik tafakkurlarini kengaytirish imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar, jumladan, multimedia platformalari, onlayn tarjima vositalari va virtual ekskursiyalar, talabalar uchun til o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. She'rni turli tillarda talqin qilish, badiiy ohang va estetikani tushunishga xizmat qiladi va talabalarda tilning estetik imkoniyatlarini anglashni kuchaytiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
2. M.T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent “Yangi asr avlodi”, 2009.
3. R. Byorns. Qo'shiq va balladalar. Ruschadan Muhammad Ali tarjimasi. – Toshkent: Adabsan'atnashr, 1971. 128 bet.